

II. UMUMTA'LIM FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH VA FANLARARO BOG'LIQLIKNI AMALGA OSHIRISH METODIKASI

UZLUKSIZ TA'LIMDA MILLIY TARBIYA TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Xolboy Ibraimov
pedagogika fanlari doktori, akademik, T.N.Qori
Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika
fanlari ilmiy-tadqiqot instituti direktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim muassasalarida milliy tarbiya tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan, ta'lim oluvchilarga milliy ruhda tarbiya berishning dolzarbligi asoslangan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, uzluksiz ta'lim, ta'lim oluvchilar, tizim, ta'lim, modernizatsiyalash, ta'lim muassasasi, kompetensiyalar, ma'naviy tarbiya.

“Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari” g'oyasini amalga oshirish uchun ta'lim tashkilotlarida, xususan, Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda iqtidorli o'quvchi-yoshlarni milliylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarga daxldorlik hissini shakllantirish bo'yicha innovatsion ishlar amalga oshirilishi taqozo qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-fevraldagi ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishida maktablardagi tarbiya va ma'naviyat masalasiga alohida to'xtaldi [5]. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda “huquqbuzarlikka qarshi immunitet” hosil qilish, tarbiyasi og'ir o'quvchilarga alohida e'tibor qaratish, ota-onalar va mahalla raislarining bu boradagi mas'uliyatini oshirish zaruraligi ta'kidlanib, “Maktab – ota-ona – mahalla” zanjiri asosida elektron muloqot platformasini ishga tushirish va ota-onalar uchun farzand ta'lim-tarbiyasi bo'yicha xalqchil tilda qo'llanmalar tayyorlash vazifalari belgilandi. Prezidentimiz “Bu tashabbuslar yo'lga qo'yilsa, maktab ta'limi bo'yicha ota-onada mas'uliyat, o'qituvchida majburiyat, o'quvchida ishonch, ta'lim va tarbiyada sifat, mahallada esa nazorat bo'ladi”, – deb alohida ta'kidladi [5].

Shu bilan birga, Birinchi va Ikkinchi Renessans asoschisi bo'lgan Buyuk allomalarimizning xarakter fazilatlari, kompetensiyalari matritsasini ilmiy-pedagogik o'rganish, ushbu yo'nalishda yangi nazariya, yondashuvlarni ishlab chiqish, iqtidorli yoshlar tarbiyasiga high-tech va konvergent texnologiyalar ni joriy qilish, tarbiyani individuallashtirish, milliy, vatanparvarlik tarbiya samaradorligini differensial baholash bo'yicha innovatsion yondashuvlar joriy etish talab etilmoqda.

Uzluksiz ta'lim muassasalari pedagogik jamoalari va turli hamkor tashkilotlar tomonidan yoshlar o'rtasida turli ommaviy tadbirlar o'tkazilib, ular orqali iqtidorli o'quvchilarda milliy ruh va vatanparvarlik fazilatlari shakllantirilmogda, qator tadbirlar o'tkazilmogda. Lekin bu ommaviy tadbirlarning samaradorligini baholash, uni nega aynan shu vaqtda, shu sinf (yosh)da o'tkazayapmiz va bundan o'quvchining qaysi kompetensiyasi o'zgardi, o'quvchilarning necha foizining dunyoqarashi necha foizga o'zgardi singari savollarga javob beruvchi ilmiy-eksperimental faktlar qo'lga kiritilmagan.

Vatanga sadoqat, milliy g'urur, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar o'quvchi yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketmasligi kerak, ularning xarakter sifatlariga singib, kundalik amaliy odatlariga aylanishi zarur. Bunda ushbu fazilatlar borasida ularning so'zlari bilan xulqlari orasidagi tafovut, har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yosh avlodning hayotda o'z o'rinini topishidagi qator muammolar bartaraf etilishi lozim.

Tarbiyaga ustuvorlik berilishi milliy ma'naviyatimizning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ushbu tamoyil ustuvorligi ta'minlanmaganligi natijasida an'anaviy tarbiya tizimida ayrim o'quvchi yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakatchanlik kabi fazilatlar yetarli darajada rivojlanmayapti, bu esa ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmogda.

Tarbiya tizimining modernizatsiyasi ta'lim-tarbiya jarayonini eng zamonaviy, ilg'or tarbiya texnologiyalari bilan ta'minlaydi. Tarbiya jarayonini muntazam monitoring qilish, baholash, nazorat qilish va boshqarish o'quvchilarning milliy tarbiya muhitida rivojlanishini ta'minlaydi, ularning milliy qadriyatlar ustuvorligiga asoslangan shaxsiy brendlarini yaratish imkoniyatlarini beradi.

Bugungi kunda o'quvchilarning vatanparvarlik fazilatlari, milliy qadriyatlarga sadoqat, yurt ravnaqi uchun fidokorlik kabi xislatlarini baholovchi aniq mezonlar, sinfi va yoshiga xos kompetensiyalar ilmiy asoslanmagan. Bunda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" prinsiplari asosida umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun milliy tarbiya tizimini modernizatsiyalash dolzarb ahamiyatga ega.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya tizimini modernizatsiyalashning quyidagi tamoyillari ustuvor hisoblanadi [7]:

- ta'lim va tarbiyaning birligi;
- tarbiya maqsadi va yo'nalishlarining milliy g'oya ro'yobiga yo'naltirilishi;
- ilmiylik (tarbiya tizimining ilmiy asosda tashkil etilishi, amalga oshirilishi, kompetensiyalarning o'lchanishi, baholanishi, takomillashtirib borilishi);
- texnologik ta'minish (ko'zda tutilgan natijani kafolatli loyihalash va amalga oshirish);
- uzviylik, uzluksizlik (o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar negizida yangi bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirib borish, ularning navbatdagi bosqichga asos bo'la olishiga erishish);

- individual yondashuv (tarbiyalanuvchilarning yosh, individual xususiyatlarini o'rganish va tarbiya jarayonini tashkil etishda ularga tayanish);
- kompetensiyaviy yondashuv (shakllantiriladigan tayanch fazilatlar to'g'risida bilim – ko'nikma – malaka – kompetensiya dinamikasiga erishish);
- modernizatsiya (tarbiya tizimining muntazam modernizatsiyalanishi, tarbiyaning zamon talablariga mosligi);
- pedagogik mas'uliyat (ota-ona, uzluksiz ta'lim subyektlari, davlat va jamoat tashkilotlari, pedagoglar tomonidan yoshlar tarbiyasi uchun mas'uliyatga amal qilinishi, pedagogik hamkorlik).

Shu sababli O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida o'quvchilarni Birinchi va Ikkinchi Renessansni yaratgan buyuk allomalarimizga xos xarakter xususiyatlarini rivojlantirish, ularni kuchli ma'naviyatli, milliy g'ururli va vatanparvar shaxs sifatida shakllantirish modelini ishlab chiqib, joriy qilish asosida modernizatsiyalashga ehtiyoj ortmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Uzluksiz ta'limda Birinchi va Ikkinchi Renessansning buyuk siymolari merosini targ'ib etishga qaratilgan kitobxonlik oyliklari tashkil etilishi milliy tarbiya tizimini modernizatsiyalashda ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilari uchun ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va milliy xulq modellarini o'rgatishga bag'ishlangan trening dasturlarini o'tkazish kabi pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali milliy tarbiya tizimining samaradorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Закон Республики Узбекистан «О статусе педагога» от 1 февраля 2024 года, № ЗРУ-901 / <https://lex.uz/ru/pdfs/6786403>
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22 dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi / <https://president.uz/uz/lists/view/6941>
4. <https://president.uz/uz/lists/view/7000>
5. <https://president.uz/uz/lists/view/7008>
6. Ibraimov X.I., Quronov M. Umumiy pedagogika. – T.: Shaffof, 2023.
7. Ибраимов Х., Куронов М. Педагогика назарияси ва тарихи. –Т.: Shaffof, 2023.

JIZZAX VOHASINING O'ZLASHTIRILISH TARIXI (1917-1924-YILLAR)

Feruz Boboyev

O'zR Fanlar akademiyasi Tarix instituti

"Tarixshunoslik va manbashunoslik"

markazi boshlig'i, tarix fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada sovet hokimiyatining Jizzax vohasini o'zlashtirishga qaratilgan siyosati tahlil qilingan bo'lib, Jizzax vohasini o'zlashtirishning boshlanishi, ko'zlangan maqsad va vazifalar, uning natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jizzax vohasi, sovet hokimiyati, sug'orish tizimi, kanal, paxta monopoliyasi, melioratsiya, Mirzacho'l.

Jizzax vohasining sug'orilish tarixi ancha oldingi davrlardan boshlangan bo'lib, aholi qadimdan Sangzor daryosidan tashqari Yoyilma, Sayxon, Rovot va Ardaxshon soylarining suvlaridan foydalanib kelganlar. Jizzax vohasini o'zlashtirish borasida shayboniy Abdullaxon II hukmronligi davrida xalqning kuchi bilan Zarafshon daryosidan Tuyatortar kanali orqali (1575-1597-yillarda qazilgan) vohaga suv keltirildi. Ammo xon o'limidan so'ng kurashlar natijasida kanal ishdan chiqadi. 1912-1913-yillarda xalqning hashar usulida Tuyatortar kanali qayta qazildi va ikkinchi marta vohaga suv keltirildi [3; 32]. Shu paytda juda katta qiyinchiliklar bilan bo'lsa ham, Jizzax aholisi Tuyatortar kanalini 26 km masofada ta'mirladi va 58 km masofaga kanal qaziganlar. Ammo ko'p vaqt o'tmasdan, 1915-yil bahoridagi kuchli yog'ingarchilik va sel kelishi kanalni foydalanib bo'lmaydigan darajaga keltirdi. Birinchi jahon urushi, 1916-yilgi qo'zg'olonlar, 1917-yilgi qurg'oqchilik natijasida Jizzaxda qishloq xo'jaligi tarmoqlari butunlay izdan chiqdi. Shuningdek, sug'orish tarmoqlari yana izdan chiqib, sug'oriladigan yerlar maydoni yetmish foizga qisqardi [2; 105].

Turkiston mintaqasida sovet hokimiyati o'rnatilgach, dastlabki yillardan boshlab yangi yerlarni o'zlashtirish vazifasi qo'yildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad Turkiston aholisining moddiy turmush tarzini yaxshilash emas, balki mintaqada paxta monopoliyasini o'rnatish edi. Shu maqsadda bolsheviklarning o'lkada amalga oshirgan eng birinchi tadbirlaridan biri – 1917-yil 9-dekabrda Turkiston o'lkasida yerni sotish va sotib olishni taqiqlash to'g'risidagi qaror bo'ldi. 1918-yil 26-yanvarda esa o'lkada yer qo'mitalarini tashkil etish to'g'risida maxsus farmon chiqdi. Keyinchalik esa barcha eski yer qo'mitalari tarqatib yuborilib, ular o'rniga Sovetlar qoshida yangi yer qo'mitalari tuzila boshlandi.

1918-yildan boshlab reja asosida Turkiston o'lkasida paxtachilikni yuksaltirish uchun kurash boshlandi. Paxta ishlari bo'yicha Xalq Komissarligining 1918-yil 10-martdagi farmoniga asosan paxta yetishtiradigan dehqonlarga yordam ko'rsatish tadbirlari ko'rila boshlandi. Bunga asosan paxta yetishtiradigan dehqonlarga chigitni imtiyozli shartlarda sotib olish imkoni berildi. Bundan tashqari, yog'-moy zavodlarining ma'muriyatiga paxta maydonlarining hosildorligini oshirish uchun ularni mineral o'g'itlar va korxonadan chiqaradigan chigitlar bilan ta'minlash vazifalari yuklandi [5; 78].

Shuningdek, irrigatsiya ishlarini yuksaltirishda ayniqsa 1918-yil 9-mayda Davlat inshootlari komiteti bosh boshqarmasi tarkibida tashkil topgan Suv xo'jaligi va

melioratsiya qurilishlari boshqarmasi muhim rol o'ynadi [5; 84]. Bundan tashqari 1918-yilning 17-mayida V.I. Lenin imzosi bilan RSFSR Xalq Komissarlar Soveti "Turkistondagi sug'orish ishlariga 50 mln so'm pul ajratish va sug'orish ishlarini tashkil qilish to'g'risidagi dekret"ni qabul qildi [3; 32]. Aynan shu dekret asosida G.K. Rizenkampf raisligida Turkistonda Irrigatsiya ishlari bo'yicha Maxsus Boshqarma (IRTUR) tashkil etildi va A.A. Nikitinskiy boshqarmaning siyosiy komissari etib tayinlandi [6].

Turkiston mintaqasining boshqa hududlari singari Jizzax vohasini ham o'zlashtirish ishlari sovet hokimiyati o'rnatilishi bilan yanada kuchayib bordi. O'zlashtirilgan yangi yerlar va paxta maydonlarining kengaytirilishi o'z navbatida suvga bo'lgan ehtiyojni oshirib borardi. Bu holat vohada sug'orish tizimlarini ham qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Jumladan, 1918-1919-yillarda Sangzor sug'orish tizimi hashar yo'li bilan tiklanib, undan Tuyatortar kanali orqali Zarafshon suvi oqa boshladi [2; 105].

Sovet hukumati va kommunistik partiya mustamlaka asoratidagi o'lka xalqlarini ayovsiz ishlatib, hadsiz-hisobsiz foyda va daromad olishning eng maqbul shakli bo'lgan jamoalashtirish siyosatini amalga oshirish uchun uzoq tayyorgarlik ishlarini olib bordi. Mirzacho'lni sug'orish bo'yicha vazifalar belgilanib, ular keyingi yillarda kuchaytirilib borildi. Masalan, 1919-yil 10-iyulda Mirzacho'ldagi 3000 desyatina sho'rxok yerlarni melioratsiya qilishga 500 ming so'm pul ajratish to'g'risidagi smeta tasdiqlandi. 1920-yil avgustda M.M. Bushuyev rahbarligida Mirzacho'l Davlat ekspeditsiyasi ishlay boshladi. Ekspeditsiyaning maqsadi mintaqani har tomonlama chuqur o'rganish, tez o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va yangi yerlarni ko'paytirish edi. Bu komissiya tarkibida professorlardan N.A. Dimo, V.F. Bulayevskiy, geologlar, gidrologlar, metrologlar, botaniklar, zoologlar bor edi. Mirzacho'lni o'zlashtirish rejasi tuzildi.

Shuningdek, 1920-yilda Mirzacho'l sug'orish tizimini qayta qurish va undan foydalanish bo'yicha maxsus boshqarma ham tuzildi. Suv militsiyasi va bezgakka qarshi kurash bo'yicha sanitariya xizmati tashkil etildi. 1920-yil 10-mayda Mirzacho'l tizimining texnika irrigatsiya komiteti sanitariya-melioratsiya va irrigatsiya ishlarini olib borish usullari to'g'risidagi masalani muhokama qildi va sohada 5-yil davomida 1-1,5 milliard so'mlik ish bajarilishini zarur deb topdi. Biroq bu borada belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun esa kadrlar yetarli emas edi. Kadrlar yetishmasligi muammosini qisman bo'lsa-da hal etish maqsadida suv xo'jaligi mutaxassislarini armiya safidan chaqirib olish choralari ko'rildi. Bu tadbir 1921-yil boshlarida amalga oshirildi.

Biroq 1921-yildagi tabiiy ofat tufayli sug'orma yerlar kamayib ketdi. Shunday sharoitda ham sug'orish, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish masalasi hech ham kun tartibidan olinmadi. 1921-yilda aholining qattiq mehnati bilan sug'orish tizimlari tozalandi. Tuyatortar kanali qaytadan ta'mirlandi, 2 ming desyatina yangi yer o'zlashtirildi. Aholining og'ir mehnati natijasida 116 kilometr kanal, shundan Tuyatortar kanalining 84 kilometrli asosiy qismga ega bo'lgan 42 ta ariqlari qayta tozalandi [1; 33, 4; 73]. Shuningdek, 1921-yilda Mirzacho'lni sug'orish tizimini harakatga keltirish bo'yicha alohida boshqarma tuzildi. Shu yili sug'orish shahobchalarini tozalashda 30 kun davomida 1500 kishi qatnashdi. Slavyanskiy va Yerjar posyolkalari aholisi 9 kilometr yangi kanal qazishdi va 750 desyatina yangi yer ochildi [4; 86].

Turkiston hukumati 1923-yil 10-aprelda "Mirzacho'ldagi tadbirlar to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi. Shu yil 19-aprelda Mirzacho'lda irrigatsiya tadbirlari to'g'risida Turkiston Iqtisodiy Kengashi (EKOSO)ning ham qarori qabul qilindi. Bu qarorlarda ham sug'orish maydonlarini kengaytirish, yerlarning melioratsiya holatini yaxshilash, tashlama shahobchalar qurish, sho'rxokka qarshi kurash zarurligi ko'rsatildi. Sug'orish me'yori 44 desyatina yerga 1 kub fut suv zarurligi qat'iy belgilangan edi.

1923-yil Mirzacho'lning shimoliy-g'arbiy qismini ham o'zlashtirish loyihasi tuzilib, bosh ariq-zovurlar qurish uchun 310 ming so'm mablag' talab qilindi. O'sha yili 4400 so'mlik sun'iy inshootlar ta'mirdan chiqarildi [4; 87]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, sug'orish tarmoqlarini qurish yoki ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larning barchasi ham maqsadli foydalanildi deb bo'lmaydi. Ajratilgan mablag'larni talon-toroj qilish holatlari ko'p bo'lgan [7]. Mirzacho'l o'zlashtirildi. Natijada yangi yerlar kambag'al dehqonlarga berildi. Biroq muammo shundaki, kambag'al dehqonlar bu yerlardan foydalanishi uchun na mehnat qurollariga na urug'likka ega emas edi. Bu esa yangi yerlarning foydalanmasdan qolib ketishiga olib kelishi mumkin edi. Mintaqani ocharchilik qamrab olgan bir sharoitda yerlardan foydalanmaslik vaziyatni yanada murakkab holatga olib kelishi aniq edi. Shundan vaziyatda Mirzacho'lda yerlardan yaxshiroq foydalanish maqsadida o'z yerlarini ishlatishga mablag' va asbob-uskunalari bo'lmagan kambag'al dehqonlar uchun yerlarni ijaraga berishga ruxsat etildi. Aslida sovet hokimiyati kambag'al dehqonlar uchun mehnat quroli va urug'lik topib berolmaganligi oqibatida shunday qarorga kelishga majbur bo'lgan. Shuningdek, yerlarni yaxshi melioratsiya qilganlik uchun mukofot tizimi joriy qilindi (ma'lum vaqtgacha ijara haqi olinmadi). Bu tadbirlar Mirzacho'l yerlarining holatini yaxshilashda muayyan rol o'ynadi. 1923-yili 2-mayda Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Kengashi "Mirzacho'lda melioratsiya tadbirlari haqida" qaror qabul qildi. Unga muvofiq, sho'rlanish va botqoqlanishga qarshi kurashni kuchaytirish, ariq-zovurlar qazish, Mirzacho'lning shimoliy-g'arbiy qismida yerlarni to'g'ri sug'orish masalalari qo'yilgan edi [4; 88-89].

Sovet hokimiyati o'rnatilgunga qadar Mirzacho'lning shimoli-sharqiy qismi sug'orilgan bo'lsa, undan keyin esa shimoli-g'arbiy qismiga qarab o'zlashtirish davom ettirildi. Bu yerda ishlar 1923-yilda Yerjar sug'orish tarmog'ini qurish orqali olib borildi [5; 109]. Kanalning birinchi navbati qurib bitkazilgach, 5 ming gektar yer ochildi. Ko'rilgan ishlar natijasida ekin maydonlari kengaydi. Bunday maydonlar hajmi 1920-yili 17,3 ming gektar, 1925-yilga kelib 43,5 ming gektar, 1927-yili 59 ming gektarga yetdi, shundan 31 ming gektariga paxta ekilgan. Dehqonlar xo'jaligi soni esa 10 mingga ko'paydi.

Mirzacho'lda sug'orish tizimi uchun 1924-1925-yillarda melioratsiyaga 165 ming 730 so'm mablag' ajratilib, asosiy ariq-zovurlarni, qamishlarni tozalash va o'rib olish ham shu ishlar jumlasiga kirar edi. 1925-yil 25-iyunda suv xo'jaligi komiteti prezidiumi majlisida Mirzacho'lning ariq-zovurlarini, birinchi navbatda Sho'ro'zak vodosborini tozalash uchun davlat byudjeti hisobidan 49357 so'm, Malik kanalini tozalash uchun 37583 so'm, Sardoba vodosbor kanalini tozalash uchun 172 ming 771 so'm ajratildi [4; 88-89].

Xullas, sovet hokimiyatining Turkiston o'lkasini paxta monopoliyasiga yo'naltirish siyosatining amalga oshirilishi davrida Jizzax vohasi ham o'zlashtirildi. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi suvga bo'lgan talabni oshirishi oqibatida esa suv inshootlari ta'mirlandi va yangilari qurildi. Yangi yerlarni o'zlashtirish siyosat 1917-1924-yillarda faqatgina boshlang'ich davrda edi. Keyingi yillarda esa bu siyosat juda keng qamrovda olib borildi. Turkiston o'lkasining keyinchalik esa O'zbekiston SSRda paxta monopoliyasining keskin ravishda olib borilishi dastlabki davrlarda iqtisodiy va oziq-ovqat muammolarni kuchaytirdi, turli xil kasalliklarning ko'payishiga olib keldi, ijtimoiy holatning keskinlashuvi, keyinchalik esa Orol muammosining yuzaga kelishiga, ekologik holatning buzilishiga sabab bo'ldi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев И., Каримов И., Караев Дж. Жиззах сув омбори таъсири доирасидаги геотизимларнинг ландшафт-экологик холатини баҳолаш. Самарканд: Самарканд давлат чет тиллар институти нашриёти, 2023.

2. Абдуллаев И.Х., Каримов И.Э., Usmanov M.R. Туятортар каналининг суғорма деҳқончиликдаги аҳамияти ва тарихи // Journal of Natural Science, 2021. – № 5. – Б. 104-108.

3. Анорбоев С. Жиззах даштларини суғорилиши тарихидан // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1969. – № 12.

4. Болтаев А. Мирзачўл-Жиззах: суғорма деҳқончилиги тарихи (1900 йил бошидан то ҳозирга қадар). – Тошкент: Фан, 2020.

5. Раззоқов А. Ўзбекистонда пахтачилик тарихи (Ўтмиш ва ҳозир). – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.

6. Rizenkampf Georgiy Konstantinovich // <https://ru.wikipedia.org/wiki>

7. Teichmann Ch. Canals, cotton, and the limits of de-colonization in Soviet Uzbekistan, 1924-1941 // Central Asian Survey, 2007. – № 26 (4). – PP. 499-519.

O‘ZBEKISTON QONUN HUJJATLARIDA FAVQULODDA EKOLOGIK VAZIYATLARDA DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

To‘xtamish Azizov
ISFT instituti prorektori
s.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “Favqulodda ekologik vaziyat” kategoriyasining mazmuni yoritilgan bo‘lib, favqulodda yuz bergan tabiiy yoki texnogen xavf oqibati ekanligi asoslangan. Favqulodda ekologik vaziyatning oldini olish va bartaraf etish muammosining oziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, vaziyat yechimiga situatsion yondashuvning empirik jihatlari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik vaziyat, antropogen omil, texnogen xavf, atrof-muhit, ekologik ofat.*

Jahon miqyosida texnogen va antropogen omillar tufayli yuz berayotgan iqlim o‘zgarishi atrof-muhitning ifloslanishi kabi jiddiy ekologik muammolar, ba’zida esa falokatga ham olib kelmoqda. XX asrning o‘rtalaridan boshlab dunyo davlatlarining siyosiy va iqtisodiy ustunlikka intilishi o‘laroq sanoat ishlab chiqarishining kengayishi va energiyaga bo‘lgan ehtiyojning keskin ortishi favqulodda ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda ekologik inqiroz global ahamiyatga ega [1]. Shu munosabat bilan global ekologik inqiroz, xususan, favqulodda ekologik vaziyatlar to‘g‘risidagi siyosiy diskurs insoniyat jamiyatining zamonaviy sivilizatsiya sharoitida omon qolishi kontekstida tobora dolzarblashib bormoqda [2].

Dunyodagi davlatlar tomonidan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi muammolarni samarali hal etish uchun siyosiy birdamlik tamoyillariga tayanuvchi qonuniy asosning yaratilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ekologik muammoning dolzarbligi va zaruriyatini inobatga olib, MDH mamlakatlari ekologik favqulodda vaziyatlar borasida muloqot yuritishi, jumladan, strategik hamkor davlatlar o‘rtasida atrof-muhit siyosatini amalga oshirishni muhokama qilishi maqsadga muvofiqdir [3]. Buning uchun hamkor davlatlarning favqulodda ekologik vaziyatlarda faoliyat yuritishi va muammolarni o‘rganish borasidagi siyosiy-huquqiy,

ilmiy-nazariy asoslarini konseptual va metodologik jihatdan muvofiqlashtirish zarur. Ushbu muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish mamlakatlar o'rtasidagi ekologik muammolarni bartaraf etishda samarali hamkorlik qilishga imkon yaratadi [4].

O'zbekistonda ekologik xavfsizlik masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar minbarlaridan suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liqligi alohida ta'kidlab kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida: "atrof-muhitga, aholi sog'lig'iga va genofondiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ekologik muammolarning oldini olish" masalasi ilgari surilgan. Respublikamizda ekologik siyosat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yo'lidagi keyingi qadam sifatida to'plangan tajribalar asosida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tashkil etilganligi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston qonun hujjatlari asosida favqulodda ekologik vaziyatlarda davlat siyosati asosiy yo'nalishlarining mohiyatini tushunishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish tizimining samaradorligini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yildagi PF-5066-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yildagi 142-son "2013-2017-yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2017-yildagi PF-5024-sonli Farmoni hamda boshqa siyosiy va huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekiston qonun hujjatlari asosida favqulodda ekologik vaziyatlarda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ochib berishda:

- O'zbekistonning huquq, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi milliy tizimlarini davlat hokimiyati institutlarining siyosiy vakolatlari va inson huquqlari doirasida tahlil qilish;
- "favqulodda vaziyat", "favqulodda ekologik vaziyat", "ekologik ofat" kabi konseptlarning eksplikatsiyasini (ichki mohiyatini) siyosatshunoslik va huquqshunoslik nuqtayi nazaridan tushuntirish;
- favqulodda ekologik vaziyatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi milliy siyosiy tuzilmalarni muvofiqlashtirish maqsadida tegishli davlat organlari faoliyatiga siyosiy va huquqiy baho berish;
- favqulodda ekologik vaziyatlar sharoitida atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash, ekologik muvozanatning buzilishi oqibatlarini bartaraf etish va atrof-muhitga daxldor voqealar yoki o'zgarishlarga duchor bo'lgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalalarida, siyosiy va huquqiy faoliyatlar doirasida, hududiy davlat organlari faoliyatining shakllari va usullarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Favqulodda ekologik vaziyatning oldini olish va bartaraf etishda muammoning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib favqulodda ekologik vaziyat yechimiga situatsion yondashuvning empirik jihatlari ochib berishda quyidagi uslublar mavjud:

- tizimli yondashuv;
- qiyosiy va ekspert tahlil;
- mantiqiy;
- statistik;
- sotsiologik.

O'zbekistonning ekologik siyosati barqaror rivojlanishning quyidagi tamoyillariga asoslanadi:

1. Ekotizimlarning ma'lum barqarorligini saqlab qolish uchun tabiatdan foydalanish jarayonlarining muvozanatiga erishish;
2. Antropogen ta'sir kuchlar yuqori bo'lgan tumanlarda barqaror rivojlanishni yangilash;
3. Ekologik muammolarning iqtisodiy muammolar ustidan ustunligini keng omma oldida tasdiqlash, shu bilan birga davlat boshqaruvi jarayonlarini ekologizatsiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo'riyev S. Ekologiya va atrof muhit muhofazasi / "Ilm-fan va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda geografiya fanini o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Qo'qon, 2021.
2. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. – Toshkent, 2020.
3. Ҳақимов Н.Ҳ. ва б. Яшил иқтисодиёт ва экология. – Тошкент, 2021.

РОЛЬ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ПОДХОДА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕХАНИЗМОВ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ ВОЕННОЙ АВИАЦИИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ

Ботир Ильясов
*преподаватель Учебного центра военной подготовки
Национального университета Узбекистана*

Аннотация. В данной статье раскрыта роль междисциплинарного подхода в совершенствовании подготовки специалистов военной авиации на основе опыта квалифицированных кадров.

Ключевые слова: междисциплинарный подход, летчик-авиатор, военный летчик, военная авиация, квалифицированный персонал.

В современных быстро меняющихся социально-экономических условиях, требованиях рынка труда, в связи с развитием информационных технологий и проникновением их во все сферы деятельности человека возникают потребности в постоянном совершенствовании и развитии знаний и опыта, необходимых для повышения конкурентоспособности специалистов авиации. Эти потребности обеспечиваются профессиональным образованием, которое является основным связующим звеном между различными уровнями непрерывного образования и отраслями экономики, требованиями работодателей и запросами непосредственных потребителей образовательных услуг.

«Новый Узбекистан – это государство, которое, строго следуя общепризнанным нормам и принципам демократии, прав и свобод человека, будет развиваться на принципах дружественного сотрудничества с мировым сообществом, конечной целью которого является создание свободной, процветающей и благополучной жизни для нашего народа», – сказал президент

[1]. Узбекистан переживает период значительных перемен и трансформаций под руководством Президента Шавката Мирзиёева, который инициировал ряд реформ в различных сферах, включая образование и воспитание. Этот период стал известен как «Третий Ренессанс», который фокусируется на модернизации и улучшении всех аспектов общества, включая систему образования. Одной из ключевых целей данного этапа является создание современной системы образования, соответствующей современным требованиям и стандартам. В этом контексте реализуются масштабные мероприятия по модернизации инфраструктуры образовательных учреждений, обновлению учебных программ, и повышению качества преподавания.

Кардинальные изменения в Вооруженных Силах Республики Узбекистан способствовали обеспечению мер эффективной организации учебно-воспитательного процесса в высших военных образовательных учреждениях. На основе усовершенствованных Государственных образовательных стандартов предусмотрена профессиональная подготовка по военным специальностям, в рамках которой организована подготовка специалистов военной авиации, отвечающих современным требованиям и обладающих профессиональными компетенциями. Перечень компетенций представляет собой интегральные личностные характеристики, выражающиеся в способностях применять полученные знания, умения и навыки в решении профессиональных задач, требования к результатам освоения образовательных программ подготовки специалистов военной авиации.

При реализации программ подготовки специалистов военной авиации возникает ряд проблем:

- неэффективность традиционных академических подходов в образовании;
- жесткий дефицит времени, отводимого для подготовки специалистов военной авиации, и большой объем учебного материала;
- недостаточное развитие научно-методической базы.

Решение данных проблем возможно в условиях междисциплинарного подхода, под которой понимают обеспечение целостности образовательного процесса при изучении системно-связанных учебных дисциплин на уровне общности понятий, методов и технологий.

Примером такой взаимосвязи может служить совокупность дисциплин «Эксплуатация авиационного обоборудования», «Эксплуатация летательных аппаратов» и «Тактика специальной подготовки».

Анализ компетенций, формируемых каждой учебной дисциплиной в отдельности, позволил выявить их взаимосвязанность на основе взаимопроникновения содержания и создания единого образовательного пространства, что дает возможность объединить данные дисциплины в единый междисциплинарный комплекс. Успешное освоение дисциплин «Эксплуатация авиационного обоборудования», «Эксплуатация летательных аппаратов» и «Тактика специальной подготовки» должно способствовать пониманию современных тенденций развития компьютерных, информационных и телекоммуникационных технологий, формированию способности учитывать их в профессиональной деятельности, а также овладению основными методами, способами и средствами получения, хранения, обработки информации, навыками работы с компьютером в сфере профессиональной деятельности.

Содержание дисциплин «Эксплуатация авиационного обоборудования», «Эксплуатация летательных аппаратов» и «Тактика специальной подготовки»

поэтапно позволяет формировать способность использовать языки и системы программирования, программные средства общего назначения, инструментальные средства компьютерного моделирования для решения различных исследовательских и профессиональных задач.

Развитие способности понимать сущность и значение информации в развитии современного общества, сознавать опасности и угрозы, возникающие в этом процессе, соблюдать основные требования информационной безопасности обеспечивает изучение учебных дисциплин «Эксплуатация авиационного оборудования», «Эксплуатация летательных аппаратов» и «Тактика специальной подготовки».

Способность обосновывать технические условия и задания на проектирование аппаратного, программного и информационного обеспечения автоматизированных систем специального назначения, а также разработка сценариев в соответствии с требованиями единых систем технологической, конструкторской и программной документации формируется в процессе освоения учебных дисциплин «Эксплуатация авиационного оборудования», «Эксплуатация летательных аппаратов» и «Тактика специальной подготовки».

Проектирование единого образовательного пространства базируется на интеграции личностно-ориентированного и синергетического подходов, основанных на механизме междисциплинарного взаимодействия с целью создания нового качества научного знания, с позиций которых высшее военное образование выполняет функцию обеспечения самоорганизации личности, является самоорганизующейся образовательной системой, актуализирует и формирует механизмы саморегуляции личности в сфере профессионального развития. В качестве средства реализации личностно-ориентированного и синергетического подходов в образовательном процессе выступают сетевые междисциплинарные учебно-методические комплексы, которые могут быть разработаны в форме интегрированных учебников по системно-связанным учебным дисциплинам. Так, при изучении учебных дисциплин «Эксплуатация авиационного оборудования», «Эксплуатация летательных аппаратов» и «Тактика специальной подготовки» целесообразно применять проектный метод, заключающийся в выполнении в течение всего курса обучения коллективного задания с назначением из числа специалистов военной авиации руководителя проекта, который по согласованию с преподавателем распределяет роли участников проекта (постановщик задач, разработчик, тестировщик и т.д.) и задачи, реализующие отдельные функции подсистем проекта. Так, в качестве задания может быть предложен проект создания автоматизированной системы управления летательными аппаратами, который предназначен для реализации информационной технологии выполнения установленных функций и задач, представляющих собой формализованные совокупности автоматических действий, выполнение которых приводит к результату заданного вида.

В процессе разработки автоматизированной системы специалисты военной авиации закрепляют знания и навыки, полученные при изучении учебных дисциплин «Эксплуатация авиационного оборудования», «Эксплуатация летательных аппаратов» и «Тактика специальной подготовки». Выполняя совместно проект разработки автоматизированной системы управления летательными аппаратами, выполняя при этом разные роли, специалисты военной авиации вырабатывают компетенции, необходимые для адаптации к условиям трудоустройства по выбранной специальности.

В качестве основы формирования культуры курсантов в процессе обучения представляется возможным выделить, прежде всего, междисциплинарный подход. Так, как только интеграция знаний учебных дисциплин позволяет решать в комплексе поставленные задачи по формированию культуры курсантов. Преподавание социально-гуманитарных дисциплин «Эксплуатация авиационного оборудования», «Эксплуатация летательных аппаратов» и «Тактика специальной подготовки» обеспечивает специалистам военной авиации обучение тем ценностям, которые придают жизни осмысленность.

Истоки междисциплинарного образования находятся внутри учебного процесса, поэтому установление связей между учебными дисциплинами является необходимым фактором для формирования системы знаний специалистов военной авиации.

Междисциплинарная основа подготовки специалистов военной авиации в процессе изучения учебных дисциплин «Эксплуатация авиационного оборудования», «Эксплуатация летательных аппаратов» и «Тактика специальной подготовки» обусловлена системной сущностью категорий «авиация», «летательный аппарат», их многоаспектностью, многосторонностью подходов к разработке задач, целостностью и комплексностью подготовки специалистов военной авиации. Междисциплинарный подход позволяет ориентироваться на получение у специалистов военной авиации знаний в процессе изучения учебных дисциплин «Эксплуатация авиационного оборудования», «Эксплуатация летательных аппаратов» и «Тактика специальной подготовки».

Результатом учебно-воспитательного процесса, основанного на междисциплинарном подходе, в высшем военном образовательном учреждении должна стать высокая культура специалиста военной авиации, патристично настроенного, знающего свои права и умеющего их отстаивать, ответственно исполняющий свой воинский долг, любящего свою Родину, остающегося верным народу и Конституции Республики Узбекистан, находящегося в постоянной готовности к защите суверенитета и безопасности республики, законопослушного, способного к самоопределению и самореализации [2].

Таким образом, междисциплинарный подход может явиться наилучшим средством для подготовки специалистов военной авиации в процессе изучения учебных дисциплин «Эксплуатация авиационного оборудования», «Эксплуатация летательных аппаратов» и «Тактика специальной подготовки», применяться в образовательном процессе с целью повышения качества подготовки специалистов военной авиации и обеспечивать инновационный характер высшего военного образования за счет обновления содержания и технологий образования.

Использованная литература:

1. Интервью Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева главному редактору газеты «Новый Узбекистан» Салиму Даниёрову от 17 августа 2021 года: <https://kun.uz/ru/08237118#!>
2. Материалы республиканской научно-практической конференции с международным участием «Андрьяновские педагогические чтения» / Под. общ. ред. Х.И.Ибраимова. 22 февраля 2023 года. – Т.: УзНИИПН, 2023.

РОЛЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Фарида Кулдашева
доцент Института «International school of
finance technology and science», PhD

Аннотация. В статье рассматриваются различные подходы к организации работы по экологическому воспитанию, направленной на целенаправленное развитие экологического сознания и культуры у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: воспитание, культура, любовь к природе, окружающая среда, изменение климата, экологическая проблема, экологическая тропа.

Люди, живущие на нашей планете, должны понимать текущую ситуацию и сознательно относиться к ней в связи с ухудшением экологического положения. Новое направление в дошкольном образовании – экологическое воспитание возникло из-за экологических проблем и необходимости их решения. Цель экологического воспитания заключается в том, чтобы дать детям знания и культуру об окружающей среде, а также научить их бережно относиться к ней. Взгляды людей, образ жизни и отношение к природе должны измениться, чтобы сохранить природу. Это указывает на важность экологического воспитания детей уже с детства [1].

Экологическое воспитание является основой полноценного развития ребенка. Это позволяет ребенку развивать свои познавательные процессы, такие как воображение, память, внимание, мышление и речь, а также традиционные нормы отношений «человек-природа». Роль, которую играет экологическая культура в сохранении природы и снижении загрязнения, является одним из основных элементов ее значения. Люди, осознающие важность окружающей среды, принимают активное участие в различных инициативах, направленных на сохранение природы и уменьшение негативного влияния человека на окружающую среду [2].

Для начала следует отметить, что «экологическая воспитанность» — это отношение к природе, ее дарам, доброжелательность к животным и интерес к объектам природного наследия. Несмотря на то, что мы сами являемся частью природы, значение природы в нашей жизни невозможно переоценить [3]. В этом конкретном контексте гуманное (человеческое, осознанное) отношение к природе равнозначно гуманному отношению к другим людям.

Такие ученые, как Е. И. Тихеева, С. Н. Николаева, П. Г. Саморукова, Н. А. Рыжова и Т. А. Серебрякова, провели исследование проблемы экологического воспитания детей дошкольного возраста. Ученые отмечают, что дошкольный возраст является идеальным периодом для того, чтобы дети ознакомились с природой и сформировали экологическое сознание и культуру.

Создание экологической тропы — это один из современных методов экологического воспитания, в котором дети знакомятся с разнообразием животных и растений, а также с тем, как они связаны друг с другом.

Экологические тропы играют важную роль в системе накопления опыта экологически правильного взаимодействия с природой для каждого ребенка. Тропы выполняют развивающие, познавательные, оздоровительные и эстетические функции. Н. А. Рыжова определила следующие шаги, которые следует пройти при создании экологической тропы [4]:

- Внимательно изучите территорию и определите наиболее интересные объекты.
- Схема экологической тропы должна включать маршрут и все объекты с условными обозначениями.
- «Хозяин» тропинки — любой сказочный персонаж, который приглашает детей в гости и даёт им задания.
- Фотографирование объектов экологической тропы и описание всех точек по картосхеме.
- создание дорожки и инструментов для проведения мероприятий, игр, опытов и наблюдений.

Таким образом, создание экологической тропы происходит по шагам. Следующим шагом является создание паспорта, необходимого документа, в котором указывается местоположение экологической тропы, основные цели и краткое описание маршрута.

В связи с тем, что праздники и развлечения включают в себя множество видов детской деятельности, они являются следующим эффективным видом экологического воспитания. Праздники и развлечения направлены на воспитание у детей любви к природе и родному дому. В организации экологического воспитания такого рода необходимо использовать различные формы эмоционального воздействия, такие как стихи, музыка, песни, танцы и игры. Наглядность и практическая деятельность должны поддерживать знания детей, чтобы они понимали результаты своей деятельности и стремились к улучшению.

Таким образом, существуют различные методы организации работы по экологическому воспитанию, которые направлены на целенаправленное развитие экологического сознания и культуры у детей дошкольного возраста. Воспитательно-образовательные цели, программное содержание и возрастные особенности учащихся влияют на выбор метода обучения. С раннего детства развитие экологического сознания дает прочную основу для дальнейшего понимания природы, воспитания любви и бережного отношения к ней.

Задачами экологического воспитания детей дошкольного возраста являются:

- Расширение знаний об окружающей природе, ее разнообразии, целостности, потребностях, особенностях и образе жизни живых организмов.
- Создание понимания важности природы.
- Развитие чувств: любви и бережного отношения к природе.
- Формирование чувства заботы о животных и природе, сохранения богатства окружающей среды.
- Обогащение и активизация словарного запаса, развитие речи.

Природа и я – одна семья: экологическое воспитание, нравственность и развитие интеллекта связаны друг с другом.

Вышесказанное служит основой для поведения любого человека, поскольку оно позволяет ему мыслить с точки зрения морали. Например, дети могут рассуждать так: это хорошо или плохо; что будет, если я поступлю так, а не иначе, и как это отразится на мне и на других людях.

Экологическое воспитание развивает логическое мышление у детей. Ребенок учится быть исследователем благодаря живой и неживой природе, которая дает ему возможность каждый день совершать «открытия» и помогает ему формировать свое собственное мнение. Ребенок расширяет свой культурный опыт, получает больше знаний и расширяет свой словарный запас, наблюдая за природой и взаимодействуя с окружающей средой.

Экологическое воспитание в обществе и семье: какие методы стоит использовать, чтобы повысить экологическую грамотность малыша:

Первым делом будет личный пример ваших близких и родителей. У ребенка формируется понимание того, как следует вести себя с окружающим миром, поскольку он копирует поведение взрослых, когда он изучает природу. Это достигается, если вы сохраняете чистоту природы, например, собирая мусор и выбрасывая его в соответствующие места, оставляя цветущие растения для насекомых и обращаясь с животными и деревьями. Кроме того, разговор о ценности природы поможет ребенку стать более осознанным и взять на себя больше ответственности.

В дошкольном возрасте игра остается основной деятельностью. Поэтому хорошо, если детское творчество сочетается с демонстрацией заботы о природе и ее ресурсах. Например, можно нарисовать плакат, чтобы рассказать о любви к природе, или написать сказку, в которой тема заботы о природе будет центральной.

Участие в тематических «днях экологии», таких как «День природы», «Лесной карнавал» и «День леса», помогает расширить кругозор и привить экологическую культуру. Субботники также имеют большую роль, потому что они воспитывают в ребенке любовь к труду и уважение к природе.

Постоянный процесс расширения знаний об окружающем мире называется формированием экологической культуры. Этот процесс должен происходить систематически и поддерживаться одобрением и посильной помощью со стороны взрослых, чтобы труд в природе ассоциировался у ребенка не только с «обязанностями», но и с хорошим настроением, радостью от проделанной работы и сознательным бережным отношением к окружающей среде.

Список использованной литературы:

1. Методика ознакомления с природой в детском саду / под ред. П. Г. Саморуковой. – М.: Просвещение, 1992. – 93 с.
2. Николаева С. Н. Методика экологического воспитания дошкольников / С. Н. Николаева. – М.: Академия, 1999. – 111 с.
3. Николаева С. Н. Юный эколог. Программа экологического воспитания в детском саду / С. Н. Николаева. – М.: МОЗАИКА-СИНТЕЗ, 2010. – 131 с.
4. Рыжова Н. А. Экологическое образование в дошкольных учреждениях: теория и практика. – М.: Академия, 2000. – 198 с.

SAMARQANDLIK JADID ISMATULLO RAHMATULLAZODANING TA'LIM-TARBIYA ISHLARIDAGI ISHTIROKI

Gulmira Achilova

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim.*

O'zR Fanlar akademiyasi Tarix instituti

Annotatsiya. Maqolada Turkistonda XIX asrning oxirida paydo bo'lgan, XX asrning birinchi yarmida rivojining cho'qqisiga chiqqan jadidchilik harakatining yirik namoyandasi samarqandlik pedagog Ismatillo Rahmatillazodaning hayoti va faoliyati, maktab ta'limini yo'lga qo'yish, yangi usul maktablari ochish bo'yicha amalga oshirgan ishlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: *jadid, maktab, ta'lim, darslik, yangi usul maktablari, jamiyat, zamonaviy fanlar.*

XIX asrning oxiriga kelib dunyoda bo'layotgan o'zgarishlar, yangilanishlar, texnika taraqqiyoti, ta'limdagi o'zgarishlar butun sharq mamlakatlariga, jumladan, Turkistonga ham sekinlik bilan bo'lsa-da, kirib kela boshladi. Bunga o'z davrining ma'rifatparvarlari bo'lgan jadidlar katta hissa qo'shdi.

Maktab ta'limini yo'lga qo'yish, yangi usul maktabalarini ochish yuzaga kelgan jadidchilik harakati namoyandalarining bosh maqsadi va asosiy dasturi bo'ldi. Samarqandda maktab ta'limini rivojlantirish ishlariga boshchilik qilgan shaxslardan biri yirik pedagog Ismatilla Rahmatillazoda hisoblanadi. U 1883-yili Samarqand shahri yaqinidagi Rajabamin qishlog'ida bog'bon oilasida tug'ilgan. Bog'bonning uyi shu qishloqlik Abduqodir Shakuriyning hovlisiga yaqin yerda bo'lgan.

Boshlang'ich ta'limni 1891–1896-yillari Abduqodir Shakuriy ochgan yangicha maktabda, Shakuriyning onasi Bibi Roziya ayadan olgan. 1901-yildan 1903-yilgacha Samarqanddagi yangicha maktabda o'qigan. Shuningdek, I. Stachkov maktabida rus tili va boshqa zamonaviy fanlardan ham dars olgan.

5. Kasper L.F. (1997) *The Impact of Content-Based Instructional Programs on the Academic Progress of ESL Students*. *English for Specific Purposes*, 16, 309-320.
6. Mironova I.N. (2020). *Basic Principles And Reasons For The Content And Language Integrated Learning Implementation*, Moscow University for the Humanities.
7. Lightbown, P. M. (2014). *Focus on content-based language teaching*. Oxford: Oxford University Press.
8. Stryker S.B. and Leaver B.L., Eds. (1997) *Content-Based Instruction in Foreign Language Education: Models and Methods*. Georgetown University Press, Washington DC.

XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RLARIDA KUZ XRONOTOPI

Inobat Madraximova
ChDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shoira Xosiyat Rustamova she'rlarining falsafiy-psixologik ko'lami, kuz xronotopining shoira ijodida aks etishi va shoira ijodining o'ziga xosligi xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *xronotop, modus, konsepsiya, modernizm, pafos, ramziy-majoziy obraz.*

X.Rustamova she'rlaridagi chuqur falsafiy-psixologik ko'lam modusi uning hamma she'rlarida ham uchraydi. Ammo, fasl – kuz kontseptsiyasi, modernizmning hali ochilmagan qo'riq ekanligini dalolalaydi. Shuning bilan bir qatorda, G'arb adabiy-badiiy tafakkuri (Lorka), rus shoiri A.Xmatovalarning tasvir usullarini ustalik bilan o'zlashtira olganligida yaqqol namoyondir. Yuqorida sanayotganimiz R.Parfi ijodida boshlangan modernistik ifoda imkoniyatlari faqat shaklda emas, shaklni mutassil

yangilab boruvchi mazmunda ham bo'ly ko'rsatishi shart. Prof.U.Hamdani bu haqda shunday yozadi: "Yangi modern she'r bu, avvalo. Badiiy tafakkurdagi yangilanishdir. Aslo qofiyadan, ritmdan ongli ravishda voz kechish emas. albatta, ana o'sha yangilangan badiiy tafakkur mahsuliga yangi libos – yangi shakl kiydirish agar shoirga muayassar bo'lsa, nur ustiga nur. Bo'lmasa, bu shoirning aybi yoki kamchiligi hisoblanmasligi lozim. Yangi shakl, ifoda zo'r berish bilan emas, balki dunyoqarashdagi, olamni idrok etishdagi yangorish bilan, badiiy tafakkur tarzimidagi, didimidagi yangilanish bilan, demakki, ijtimoiy-tarixiy, ma'naviy – psixologik zamindagi ulkan siljishlar bilan dunyo yuzini ko'radi". Ko'rinadiki, X.Rustamovalarning tengdoshlari va ularning boshlab bergan an'analarida qandaydir bog'liqlik mavjud. Noan'anaviy lirikaning ijrosida, shaklida va uning ifoda xususiyatlarida o'quvchi izlayotgan ma'noning idrokiga doir qator sifatlar jamuljam. Shuningdek, inson tafakkur o'laroq o'zining maqsadi va muddaosini zabt etadi. Modernizm – tafakkur bilan birgalikda, texnologik dunyoda raqobatga kirishtira oladigan moduslarga kalit vazifasini ham o'taydi. Chunki shoira X.Rustamovada – kuz va vaqt arxetipi, modernizm va realizm oraliq'ida yuzaga kelgan erkin she'r tabiatida paydo bo'lgan. Bunday deyishimizga sabab – badiiy vaqt xronotopi kuz va qish oraliq'ida yangicha ranglarda ruhiy-ijtimoiy kayfiyatni idrok qilish evaziga takomillashib borganini unutmash lozim. X.Rustamovaning "O'ttizinchi noyabr" nomli she'rida esa – kuz xronotopining yangicha ifodasini ko'ramiz. Bir kungina ichida bo'lib o'tgan vaqtning eng muzlam ko'rinishi, shoirning ritorik savol-javoblarida nihoyasiga yetadi:

*Noyabr yashaydi so'nggi kunini,
So'nggi sayohatda –
So'nggi soatlar.
Tun teskari kiyib olar to'nini –
Qo'lini cho'zgancha qolar daraxtlar.
O, mayda qushlar ham
Bilmagay tinim,
Havoda raqs etar,
Barglar uyumi.
Noyabr!
Noyabr – aylanmas tilim –
Dunyodan ketmoqlik –
Shuncha qiyinmi?!
Keksaygan bulutlar
Topar yo'lini –
O'zin to'foniga
O'zin etar g'arq.
Nahot, xazonlarga
To'la umringni –
Noyabr,
Bir kunda etasanmi tark?!*

Umr o'tkinchi ekanligi, haqiqiy hayot bu yerda shoira – insonning qadr-u qimmatini, yaxshi amallari, siyrati va surati, nafsini jilovlay olishi haqidadir. Butun olam anglanishi zarur bo'lgan qobiq. U aql bilan idrok etilgandan tashqari, qalb bilan tuyulgandagina voqelikning mohiyati o'quvchiga ayon bo'ladi. Modern adabiyot ham voqelik mohiyatini anglash uchun har safar yangi usul qo'lladi, subyektdan obyektga qaratdi. Uning bosh tamoyili muallif tasavvuridagi voqelikni dastlabki ma'nosini yo'qotgan so'zga ko'chirishdan iborat bo'lib qoldi. Modern asarlar tayyor voqelik modeli o'rniga

u uygʻotgan tuygʻular mavjudligi ularni tasavvurini boyituvchi badiiy mahsulotga aylantirildi. Xususan, badiiy talqin sifati va samarasining muntazam yangilanib turishi natijasida, insonning bilish ehtiyoji ham ortib boradi. Sanʼatning rang-baranglashuvi va idrokning chuqurlashuvi negizida tafakkur va falsafiy teranlik ham oʻsib borishi tayin. X.Rustamovaning kuz xronotopiga doir oʻnlab sheʼrlarida modernizm: bilish va anglatish ehtiyoji oʻlaroq yuzaga kelganini inkor qilib boʻlmaydi. Chunki shoira Gʻarbda rasm boʻlgan anʼadan tamomila milliy sheʼrga yangicha shakl bagʻishlamoqda. Oʻlim va hayot orasidagi vido maktubida, xazon yoki daraxtlarning mungli nolalari, qushlarning horgʻin kayfiyati xuddi suratlardagidek aks-sado bermoqda:

Voqelikning intensiv shaklidan yoki ifodasidan tabiiy ruhiy bir holatni chizish X.Rustamovaga xos usullardan biri boʻlsa, ajabmas! Baʼzan oʻlimni faslga, faslga oʻlimga antiteza usulida – insonning yashash instinktiga javob axtarish ilinjida qalam suradi. Shoira “Kuzak” sheʼrida ayni shu ruhiy-ijtimoiy kayfiyatni ilgari suradi va bunga yangicha maʼno yuklashga erishadi:

*Bogʻlarga ne boʻldi?
Koʻkda nima gap?
Borliq toʻlib ketdi shovqin-suronga.
Xuddi taslim boʻlgan askara oʻxshab,
Daraxtlar qoʻlini choʻzdi osmonga.
Ortiqcha yigʻiga bermadi izn –
Shamol gʻazab bilan
Tutdi dastini.
Borliqqa qorongʻu tushishi bilan,
Kuz somon yoʻliga kirdi bostirib.*

Sheʼrdagi ramziy-majoziy pafos inson tuygʻularini yanada yuksaltiradi. Oʻquvchi kuzga oʻzi beixtiyor savol bera boshlaydi. Bu savollar zamirida insonning oʻziga tan hayotiy kechmishlari aks etadi. Toʻgʻri, ijtimoiy lirikaning mazmun-mundarijasida yuzaga chiqqan ruhiy tovlanishlar yangi modern sheʼriyatga asos boʻlgani ayni haqiqatdir. Kuzning osmonu falakka uchib ketishi, umrning ham oʻtkinchiligiga ishora qilinmoqda.

Foydalangan adabiyotlar roʻyxati:

1. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. –T: Fan, 2007. – B.140.
2. Yoʻldosheva M. Yangilanishlar manguligi. – T: Adib nashryoti, 2011. – B.33.
3. Madraximova I. “Kuz” obrazining uslubiy xususiyatlari // Til va adabiyot taʼlimi, 2023. №10. – B. 40-42.
4. Madraximova I. B. Yomgʻir obrazining Rauf Parfi lirikasida aks etishi // European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 2023. – №13. – 264-267.
5. Madraximova, I. B. Usmon Azim sheʼriyatida kuz talqini. Innovative developments and research in education, 2022. – № 1 (1). – B. 63-66.
6. Madrakhimova I. B. The interpretation of autumn in the poetry of Usman Azim // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 2022. – №10 (10). – PP. 336-340.

HOZIRGI ZAMON MUSIQA TA'LIMI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Islom Umurzakov

*O'zbekiston Milliy universiteti Falsafa va
ma'naviyat asoslari kafedrasi tayanch doktoranti*

Annotatsiya. *Hozirgi zamonning musiqa ta'limi haqida gapiradigan bo'lsak, umumiy dunyoqarashlar voqe'likni bilishiga asoslanadi. Ta'lim jarayonida bilish jarayonlarning turlari mavjud bo'lib, o'quv materiallarni puxta o'rganish – bilim olishning asosiy maqsadi hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *ijrochi, ustoz-shogird an'nalari, musiqa, cholg'u asbobi, ilm, san'at.*

O'zbekistonda o'tkazilgan arxeologik izlanishlar natijasida musiqa xalqimizga qadimdan ma'lum bo'lganligini ko'rsatdi. Misol uchun, Samarqand viloyatining Urgut tumani, Mo'minobod qishlog'ida o'tkazilgan izlanishlar davomida, odam skeleti bilan birga ajib nay cholg'usi topilgan. Ushbu topilma bo'yicha mutaxassislarning fikricha, mazkur nay cholg'u asbobi bronza davriga tegishli bo'lib, uning yoshi taxminan besh ming yilga teng. "Bu nay Zarafshon vodiysida yashagan eng qadimgi qabilalar bundan 5 ming yil avval musiqa sozidan unumli foydalanganliklaridan va umuman musiqa ular ijtimoiy-madaniy hayotining tarkibiy qismi bo'lganligidan dalolat beradi" .

Ko'plab olimlar, xorijiy mutaxassislar ijrochilarning faoliyatlarida eshitish qobiliyati darajasining muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tishgan. Misol uchun, B.Asafyev, G.Berlioz, B.Teplov va boshqalar ijrochilarda eshitish qobiliyati eng asosiy ko'rsatkichlardanligini ko'p marotaba aytib o'tishgan. Musiqiy eshitish qobiliyatining uchta asosiy turlari mavjud bo'lib, ular – melodik eshitish, garmonik eshitish va baland ovozda eshitishdir. Melodik eshitish – bu bir ovozli "Lado" rangli kuyni eshitish qobiliyati. Garmonik eshitish esa, konsonans va garmonik ketma-ketliklarni bilish qobiliyati hisoblanadi. Musiqiy eshitishning garmonik va melodik turlari mohiyatiga ko'ra sintetik jarayon hisoblanadi. Ular alohida tovushlarning yig'indilarini emas, ya'ni, sifati, original, sintetik tovushlarni anglash uchun qo'llaniladi. Baland ovozda eshitish 2 ga bo'linadi. Ya'ni, mutlaq va nisbiy. Mutlaq eshitish – alohida tovushlarni tanish yoki ko'paytirish qobiliyati, ularni boshqa tovushlarga bog'lamasdan alohida eshita bilishdir. Ko'plab insonlar, hattoki musiqa ijrochilari mutlaq eshitishni tug'ma bo'lishi kerak deb hisoblaydilar. Mening fikrimcha, mutlaq eshitish bu – originallik. Original darajaga mehnat, nazariya va amaliyot orqali erishish mumkindir. Nisbiy eshitish esa, umumiy ovozlarni taqqoslashda alohida ohanglarning farqlarini sezish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, uztoz-shogird an'nalari, og'izdan og'izga o'tib kelgan asarlarning bizgacha yetib kelishida birlamchi vosita – bu eshitish qobiliyati hisoblanadi. Eshitish qobiliyati orqali taqlid ham, mukammallik ham rivojlanib boradi.

"Musiqiy taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida ayrim etnografik guruhlar faqat bir ovozli musiqa yasash shakllariga ega bo'lgan (masalan, tatarlar, mari, boshqirdlar va boshqa ayrim millat vakillari. Biroq, hatto nazariy jihatdan ham qarama-qarshi hodisani, ya'ni ohangdor bo'lmagan holda garmonik musiqa yasashni tasavvur qilib bo'lmaydi. B.M.Teplov (1947) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot ba'zi bolalarda garmonik eshitishning to'liq yo'qligi holatlarini tasvirlaydi. Shunisi xarakterliki, u

yoki bu asarlarda melodik eshitishga nisbatan o'xshash holatlarning tavsiflari yo'q. Melodik eshitish ontogenezda osonroq, iyerarxik holatda pastroq bo'lishi tufayli garmonik eshitishga nisbatan ancha tez, tabiiy va ixtiyorsiz rivojlanadi. Murakkab va yuqori garmonik eshitishning rivojlanishi uchun melodik eshitishning ko'p yoki kam shakllangan asosi zarur, bu esa garmonik ontogenetik rivojlanishda kuzatiladigan vaqt kechishiga sabab bo'ladi, melodikaga nisbatan xizmat qiladi".

Musiqaning inson ongiga, salomatligiga, kayfiyatiga, uning shakllanishiga bevosita ta'sir o'tkazishi nafaqat bugungi kunda, balki o'tgan asrlarda ham tadqiq qilinib, olimlar, faylasuflar tomonidan turli fikrlar bildirilgan. Misol uchun, qadimgi Yunon faylasufi Aflotun "Davlat haqida"gi asarida jamiyatni jismoniy va ma'naviy jihatlardan rivojlantirishda sport va musiqa katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan.

Bundan tashqari, Aflotun, Arastu (Aristotel), Plutarxlar ham har qanday ijtimoiy tarbiya asosan musiqaviy tarbiyaga asoslanishi xususida fikr bildirganlar.

Buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino san'atni ikki turga, ya'ni she'riyat va musiqaga bo'lib, ularni sintez qilishga, insonning ma'naviy tarbiyasidagi roliga, o'zaro aloqadorligiga alohida e'tibor qaratgan. Ibn Sino o'zining musiqaga doir risolalarida "Latif musiqa yoqimli kayfiyat yaratadi hamda ko'ngilni ochadi, yomon musiqa esa zardani qaynatadi", degan fikrni bayon etgan.

Buyuk ajdodimiz Alisher Navoiy musiqa va adabiyotning birligi to'g'risidagi qarashlari "Saddi Iskandariy" dostonining kirish qismida o'z aksini topgan.

O'rta asrlarda ham musiqa va adabiyot o'zaro chambarchas bo'lib rivojlanib bordi. Jahon adabiyotshunoslari yuksak badiiy asarlar yaratish bilan bir qatorda musiqa sohasi bilan ham faol shug'ullanganlar va u yoki bu musiqa asbobida kuy ijro eta olganlar. Bunga misol sifatida, Abu Abdullo Rudakiyning ud sozida, Abul Qosim Firdavsiy chang cholg'u asbobida, Nosir Hisrav g'ijjak sozida kuylarni mahorat bilan ijro etganlar.

Mavlono Kavkabi Buxoriy esa "Musiqa haqida traktat" asarida musiqaning alohida o'rni, farqi hamda uning afzalliklarini e'tirof etgan. Insonlar musiqani tushunishi uchun ruhan pok va musiqa to'g'risida ma'lum darajada bilim va ko'nikmalarga, shuningdek, eng yaxshi insoniy xislatlarga ega bo'lishlari zarurlagini bildirib, musiqa – bu haqiqatdan olijanob fan va nafis san'atdir. Uning sirlari faqat olijanob kishilargagina ma'lum, deb aytib o'tgan.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur davrida ham madaniyat va san'at yanada rivojlanib bordi. Shu davrda Temuriylar hukmronlik qilgan Samarqand va Amir Temurning ona shahri Kesh (hozirgi Qashqadaryo viloyati, Shaxrisabz tumani) tobora rivojlandi. Sohibqiron saltanatida o'tkaziladigan har qanday marosimlar musiqiy ohanglar bilan jo'rlikda o'tkazilgan. Mullo Salohiddin ibn Mullo Aloiddin hoja Eshon Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarida Sohibqiron har qanday jangga kirishishidan avval yoki g'alaba bilan qaytganidan so'ng karnay va nog'oralar sadolari ostida kechganlari qayd etilgan.

Buyuk Turon zaminida musiqa va ijrochilik san'ati rivojlanishi qadim zamonlarga bog'lanib ketishini ko'rishimiz mumkin. Sharq allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Paxlavon Mahmud, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Umar Xayyom va boshqa ulug' bobokalonlarimiz musiqa ilmi, tarixi, cholg'u sozlari, ijro usullari hamda musiqiy qonun-qoidalarga oid ko'plab ma'lumotlarni bayon etib kelganlar. Biz bilgan mashhur didaktik asar

"Qobusnoma"da hofizlikning qoidalarga bag'ishlangan alohida bob keltirilgan.

"Yana bir tarixiy manbaga murojaat qiladigan bo'lsak, ulug' olim Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning "Risola dar ilmi musiqa" (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining "Dar

bayoni duvozda maqom" (o'n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: Xoja Abdulqodir ibn Abdurahmon Marog'iy, Xoja Sayfiddin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloiriylarning qo'zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo'lg'on: "Maqomi rost", "Maqomi Ushshoq", "Maqomi Navo", "Maqomi Roho", "Maqomi Xijoz", "Maqomi Iroq", "Maqomi Xusayniy". Yana ushbu risolada ulug' bobomiz Ulug'bekning o'zi tanbur va nog'orani juda yaxshi chalganligini, "Bulujiy", "Shodiyona", "Axloqiy", "Tabriziy", "Usuli ravon", "Usuli otlig" singari kuylarni ixtiro qilganligini ta'kidlab o'tadi".

Musiqa faniga IX-XI asrlarda asos solinib, O'rta Osiyo olimlarning aksariyati musiqa bilan shug'ullanganlar. O'rta Osiyo olimlariga musiqa ustida tadqiqotlar o'tkazishda Pifagor va uning matematika uslublari o'zining ma'lum darajadagi ta'sirini o'tkazadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, tarixdan ijro yo'llarining sayqallangan ko'rinishlari bilan o'zgarib, vaqt o'zgarishi, rivojlanish va izlanish natijalarida jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqlarning etnik joylashuvlari, yashash sharoitlari hamda turmush tarzlariga qarab ularning madaniy rivojlanishiga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rnini topganligi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хамидов Х. Ўзбек анъанавий кўшиқчилик маданияти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
2. <http://www.hozir.org/maruzha-mavzu-17-musia-ahborotini-idrok-etishning-psihologik-hu.html?page=2>
3. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12177-2021-05-31-08-41-38>

INGLIZ TILI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH VA ZAMONAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI

Lola Rustamova

ISFT Pedagogika fani o'qituvchisi

Ruxshona Qambarova

ISFT Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda til o'rganishning ahamiyati, o'rgatish davomida interfaol metodlardan foydalanish, darslarni qiziqarli va ko'tarinki kayfiyatda olib borish va zamonaviy muhitni tashkil etish samaradorligi haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: metod, g'oya, faollik, jarayon, tasavvur, bilim, omil, o'qituvchi, jamiyat, ma'naviyat, motivatsiya, ijodiylik, tajriba, rivojlanish, ta'lim.

Kirish. Har qanday jamiyatning o'rni unda yashayotgan aholining bilimi, saviyasi va faolligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda til o'rganish, nafaqat rivojlanish, balki yangi imkoniyatlar eshigini ham ochib bermoqda. Zamonaviy jamiyatda til o'rganish jarayonini yaxshilash, positiv muhit yaratish, o'quvchi motivatsiyasini oshirish va interfaol metodlardan foydalangan holda dars tashkil qilish muhim omil hisoblanadi.

Ingliz tili dunyoda eng keng tarqalgan til, ya'ni jahon tili demakdir. Jahon globallashuvi va integratsiya jarayonlari hayotimizni barcha jabhalarida madaniyatlararo jadal rivojlanishga olib keldi. Til – siyosat, jamiyat, dunyoqarash,

manfaat, biznes, aloqa, madaniyat, sayohat, yangi tanishlar, kasblar, orzular, maqsadlar va muvaffaqiyatlar kalitidir. Kirill Korshikov aytganidek “Hech qachon o‘rganishdan to‘xtama chunki hayot hech qachon o‘rgatishdan to‘xtamaydi” (Never stop learning because life never stop teaching).

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, chet tillarini o‘rgatishga qiziqish ortdi. Prezidentimizning chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog‘risidagi qarorlarida “Belgilab qo‘yilsinki, 2013/2014 o‘quv yilidan boshlab:

-respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o‘rganish umumta‘lim maktablarining birinchi sinflaridan o‘yin tarzidagi darslar va og‘zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o‘qish va grammatikani o‘zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi;

-oliy ta‘lim muassasalarida ayrim maxsus fanlarni, xususan, texnik va xalqaro mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitish chet tillarda olib boriladi” [1]. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida – “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, lisey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat‘iy talab har bir ta‘lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”, – dedi Shavkat Miromonovich Mirziyoyev [2; 98]. Shuningdek, chet tilini o‘rgatish imkoniyatlari kengaytirildi. Til o‘rganish va o‘rgatish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish interaktiv va kreativ muhitni yaratib beradi. Xususan, yangi metodlar qiziqishlarni yanada ortishiga, darslardan zerikmaslikka, dunyoqarashni kengayishiga, o‘rganuvchi motivatsiyasini oshirishga va ijobiy fikrlashga xizmat qiladi.

Metod (yun. “metodos” – bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta‘limot) – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

“Interfaol” so‘zi esa - informatsiyani, axborotlarni kompyuter tarmog‘i orqali qabul qilish yoki uzatishga asoslangan – degan ma‘noni bildiradi

Interfaol metodlar, o‘quvchilar bilimni oshirish va ularning til o‘rganish faoliyatini qiziqarliroq qilish uchun foydalaniladigan turli usullardir. Bu metodlar o‘quvchilarga interaktiv darslar tashkil etish, o‘zlashtirilgan ta‘lim vositalaridan foydalanish va mazmunni qiziqarli va ma‘qul ko‘rinishda taqdim etishga yordam beradi. Misol uchun quyidagilar:

Muvofaqiyatli dasturlar va ilovalar: Interfaol dasturlar va ilovalar, o‘quvchilar uchun o‘rganish jarayonini qiziqarliroq qilishga yordam beradi. Bu ilovalar orqali o‘quvchilar mazmunni o‘zlashtirish, amaliy mashg‘ulotlar bajarish va tili amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Interfaol maqolalar va videolar: O‘quvchilarga maqolalar va videolar orqali mazmunni tushunishga yordam berish mumkin. Bu maqolalar va videolar interaktivlikni oshirish, tushunchalarini mustahkamlash va tilni amalda qo‘llashga yordam beradi.

Virtual darslar: Virtual darslar yordamida o‘quvchilar bilimlarini sinash, mazmunni o‘zlashtirish va amaliy mashg‘ulotlar bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Virtual darslar interaktivlikni oshirish, o‘quvchilarning ilg‘or tajribasini yaxshilash va ularga turli tillarni o‘rganish imkoniyatlarini beradi.

Online platformalar: online platformalar, o‘quvchilarga mazmunni o‘rganish, amaliy mashg‘ulotlar bajarish va kompyuter dasturlaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu platformalar yaratuvchanlikni ta‘minlash, interaktivlikni oshirish va

o'quvchilarning til o'rganish qobiliyatini qiziqarliroq qilishga yordam beradi.

Internet resurslaridan foydalangan holda chet tillarini o'rgatishning asosiy talablaridan biri bu darsda o'zaro ta'sirini yaratishdir, bu odatda metodikada interaktivlik deyiladi. Interaktivlik – bu “nutq vositalari yordamida kommunikativ maqsad va natijadagi say-harakatlarni birlashtirish, muvofiqlashtirish va to'ldirish”. Interaktivlik nafaqat darslardagi unumlilikni ta'minlaydi balki hayotda real vaziyatlarni yaratadi va talabalarni chet tilida munosib javob qaytarishga majbur qiladi.

“Interactive language teaching means elicitation of willing student participation and initiative, it requires a high degree of indirect leadership, along with emotional maturity, perceptiveness and sensitivity to the feelings of others. When a teacher demonstrates these qualities, students lose their fear of embarrassment and are willing to try to express themselves. Krash speaks of “saving one's own and other's face”. One student feel appreciated and valued, they are anxious to show what they can do, to propose and participate in activities” deya bayon etilgan. Ya'ni tilni interfaol o'rgatish o'quvchilarning ixtiyoriy ishtiroki va tashabbusini uyg'otish demakdir, bu hissiy yetuklik, idrok etish va boshqalarning his-tuyg'ulariga sezgirlik bilan bir qatorda yuqori darajadagi bevosita yetakchilikni talab qiladi. O'qituvchi bu fazilatlarini o'zida namoyon qilganda, o'quvchilar xijolat bo'lish qo'rquvini yo'qotadilar va o'zini ifoda etishga harakat qilishga tayyor bo'lishadi. Krash “birovning va o'zganing yuzini saqlab qolish” haqida juda ma'noli gapiradi. Bitta talaba o'zini qadrlash va qadrlanishini his qiladi, ular nimaga qodirligini ko'rsatishga, taklif qilish va tadbirlarda qatnashishga intiladi [3; 10] – deydi Wilga M. River o'zining “Interactive Language Teaching” kitobida. Ya'ni tilni interfaol o'rgatish ixtiyoriy tashabbusdir. O'rgatuvchida hissiy yetuklik, sezuvchanlik bo'lsa, o'zini erkin his qila olsa, undagi qo'rquv yo'q bo'lishi va natija samaradorligi oshishi haqida ta'kidlab o'tadi.

1970–1980-yillarda ishlab chiqilgan to'rtta usul garchi o'qitishda kamdan-kam qo'llanilsa-da, til o'qitishga sezilarli ta'sir qiladi. Ular tez-tez birgalikda gumanistik yondashuvlar sifatida tasvirlanadi, chunki kamida to'rtta holatdan uchta dizaynerlar birinchi navbatda o'quvchilarning affektiv filtrlarini pasaytirishga harakat qilishadi, ya'ni asosiy maqsad o'rganishdagi psixologik to'siqni olib tashlash:

1. **Jamoat tilini o'rganish** (Community Language Learning CLL). Bu o'qitish metodida talabalar aylana bo'lib o'tirishadi. Ular nima haqida gaplashishni o'zlari tanlashadi. Biri so'z o'z ona tilida so'z boshlaydi va ikkinchisi uni ingliz tilida ifodalab berishga harakat qiladi. O'tirganlar esa ularni nima so'zlayotganini bilishlari kerak. Ya'ni bundan maqsad tildagi talaffuz qanday ishlatilayotgani, o'zlashtirish qay darajada yaxshi ekanligi va yetkazib berish qobiliyati kuzatiladi.

2. **Jimlik usuli** (The silent way.) Bu metodning asoschisi Caleb Cattegnodir. Bu usul shundayki, o'qituvchi o'quvchilar bilan suhbatlashishdan ko'ra ko'proq jim turadi ya'ni (Limit Time Teacher) bugungi kundagi interfaol metodlardan biridir. O'rganuvchi va o'rgatuvchini haydovchi va yo'lovchi sifatida tasavvur qilsak, o'qituvchi emas o'quvchi haydovchi o'rindig'ida o'tiradi. Manzilga yetishda haydovchi asosiy ro'l o'ynagani kabi agar o'quvchi ham ko'proq darsga yondashsa va izlansa natija unumliligi ortib boraveradi.

3. **Taklif qilish** (Suggestopedia). Metod asoschisi Georgi Lozanov. Bu usul sinfning jismoniy muhiti va atmosferasini hayotiy ahamiyatga ega deb biladi. Bu usulda o'qituvchi hamdardligi ya'ni o'quvchilar bilan erkin suhbatlashish yo'lga qo'yiladi (ya'ni qisqa tanaffus – qo'shiq tinglash yoki o'quvchida bo'layotgan muammolarni tinglash). Bu usul o'rgatish davomida o'rganuvchining yangi tilni qabul qilish jarayonidagi to'siqlarini olib tashlashda qulay hisoblanadi.

4. **Umumiy jismoniy javob** (Total Physical Response (TPR). James Asher tomonidan

ishlab chiqilgan bo'lib, ko'proq endi o'rganayotganlar yoki bolalar uchun qo'llaniladi. Bu metod jismoniy harakatlar yordamida til o'rganishdir. Ustoz tomonidan "devorni ushlab keling", "eshikni yopib qo'ying" kabi turdagi buyruqlar beriladi, o'quvchilar esa buni bajarishadi. Bu xonada qiziqarli, faol muhitni shakllantiradi va so'zlarni keyingi safar yaxshi eslab qolishida ko'maklashadi [4; 88-91].

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar ommalashib bormoqda. Bu holat o'rgatishda qulay muhitni yaratib beradi. Kompyuterlar, gadjetlar, mobil aloqa vositalari, proyektrlar yoki turli xil sayt va programmalar va shu kabi qurilmalar dars jarayonini mustahkamroq va qulayroq olib borilishida xizmat qiladi. Misol uchun:

Duolingo. Bu programmada rasmlar ko'rsatiladi, siz rasmlarga qarab turli xil tillarda uning nomini topishingiz kerak. Bu ham zukkolikni, topqirlikni va fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi.

Hallo. Bu programmada avvaliga test yechiladi va sizni darajangizga qarab siz turli xil davlat odamlari bilan gaplasha olasiz. Afzalliklari boshqa davlat madaniyati, urf-odatlar haqida ma'lumotga ega bo'lasiz va tanlagan tilingizda boshqalar bilan so'zlashish orqali hayajonni yo'qota olasiz.

Saytlar va kanallar. Ingliz tiliga mo'ljallangan darslarni ko'tarinki ruhda olib borishiga ko'maklashadi. Masalan: wordwall.net, bamboozle, kahoot, padlet va shu saytlar. Bular orqali o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlari ortadi, berilayotgan ma'lumot va bilimlar shunchaki emas qiziqtirilib, muhitni jonlantirib o'tiladi va vaqt samarali taqsimlanadi.

G-mail. Ma'lumki rivojlangan jamiyatimizda deyarli 70% aholining telefoni bor. Dars o'tib bo'lganidan keyin o'qituvchi o'zi uchun talabalardan *feedback* so'raydi. Tabiiyki ayrim talabalarda hijolat va qo'rquv hissi bo'ladi. Shunday paytda o'qituvchi gmailini talabalarga taqdim etsa, o'quvchilar unga dars jarayoni haqida, yana qanday qiziqishlari borligi yoki yana nimalardan foydalansa ularga ma'qul kelishi, qiziqishlari ortishi haqida erkin yoza oladilar. To'g'ri, buni telegram yoki sms xabarlar orqali ham ifodalasa bo'ladi, ammo bundan maqsad gmaildan erkin foydalana olish va undagi maxfiylik siyosatining kuchliroq ekanligi va o'quvchini qiziqtirishning yana bir usuli hisoblanadi.

O'quvchilar motivatsiyasini yuqoriga ko'tarish uchun o'quv jarayonida turli dars metodikalaridan foydalanish kerak. Aktiv, interaktiv va o'quvchilar uchun maqbul dars metodikalari motivatsiyani oshiradi. Interfaol metodlardan foydalangan holda darslarni tashkil etish o'quvchilarning yangi bir dunyosida darsga bo'lgan ishtiyoqini kashf eta oladi. Shu kabi faol, aniq, qiziqarli, foydali o'yinlar, metodlardan foydalanish, o'rgatish va o'rganishdagi qiyinchiliklarni oson bartaraf eta oladi. Bunday loyiha usullari o'rganuvchilarni muloqot qobiliyatini, kirishuvchanlik mahoratini, muomala madaniyatini, fikrlarini ixcham va oson shakllantirish qobiliyatini yuzaga chiqarib berishida yetakchi o'rinni belgilab beradi. Chet tillarida nutqni eshitishi ularda tinglash va gapirish qobiliyatini yaxshilaydi, tajribalar to'playdilar, texnologiyalardan foydalangan holda fikrlarini qayta ishlashadi, o'zlarida ijodkorlikni faollashtirishadi va nazariy va amaliy bilimlari faollashtirishadi.

Online platformalar, virtual darslar, muvaffaqiyatli darsturlar va ilovalar interaktivlikni oshirish, o'quvchilarning ilg'or tajribasini yaxshilash va ularga turli tillarni o'rganish imkoniyatlarini beradi. Bu metodlar o'quvchilarga mazmunni o'rganish, amaliy mashg'ulotlar bajarish va kompyuter dasturlaridan foydalanish imkoniyatini beradi. It's the supreme art of the teacher to awaken joy in creative expression and knowledge, ya'ni Albert Eynshteyn ta'kidlaganidek, "Ijodiy ifoda va bilimda shodlik uyg'otish ustozning oliy san'atidir".

Xulosa qilib aytganda, darslarni tashkil etishda interaktiv metodlardan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Ustoz va shogirdlar o'rtasida intellektual muhitni yaratadi. Darsdan zerikish, o'quvchilarning darslardan ishtirok etishni xohlamasligi yoki o'rganishni xohlamaslikni oldini oladi. Ishtiroq oshgani sari natija mahsuldorligi yuqorilashib boraveradi. Ingliz tili fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarni motivatsiyalash, o'quvchilarning tilo'rganish jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq qilish uchun yaxshi bir imkoniyatdir. Online platformalar, virtual darslar, muvaffaqiyatli darsturlar va ilovalar interaktivlikni oshirish, o'quvchilarning ilg'or tajribasini yaxshilash va ularga turli tillarni o'rganish imkoniyatlarini beradi. Bu metodlar o'quvchilarga mazmuni o'rganish, amaliy mashg'ulotlar bajarish va kompyuter dasturlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/4057>.
3. Wilga M. River. Interactive Language Teaching, 1997.
4. Jeremy Harmer. The practice of English language teaching, 1983.
5. Uktamova K.L. Opinions of Scientists About the Deixis Phenomenon // Eurasian Journal of learning and Academic Teaching, 2022. – № 8. – PP. 117-121.
6. Douglas Brown H. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy, 2007.

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING O'RNI

Karimov Ilhom

ISFT instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif zamonaviy ta'lim tizimida joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati, amaliyotga joriy etilish holati tahlil qilgan. O'tkazilgan kuzatish hamda tahlillar orqali inklyuziv ta'lim tizimining joriy etilishi yuzasidan tegishli xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, inklyuziya, ta'lim, bola, nogironlik, ta'lim tizimi, integratsiya, tamoyil, segregatsiya, konsepsiya.

Ta'lim jarayoni insonlarni hayotga va mehnat qilishga o'rgatishning eng asosiy shakli bo'lib, axborot almashishning samarali va uzoq asrlik tajribasi mahsulidir. Ta'lim umumiy ma'noda inson dunyoga kelganidan boshlab umrining oxiriga qadar o'rganadigan hamda o'zlashtiradigan jarayonlar majmuidan iborat bo'ladi. Bu jarayonda ta'limning turli shakl va vositalaridan foydalaniladi. Odatiy holatda biz ta'lim deganda saboq olish yoshiga yetgan, jismoniy, aqliy va ruhiy holati ushbu jarayonlarga mos keladigan bolalarni o'qitishni tushunamiz. Biroq ta'lim mohiyatan keng tushuncha. Ta'lim faqat turli tipdagi o'quv muassasalarida o'qitish jarayonini emas, balki oila, jamiyat, ishlab chiqarish va boshqa turli sohalarda ma'lumot berish kabilarni ham anglatadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'ziga xos bo'lgan, ma'lum talablarga javob bera oladigan va barcha uchun umumiy dasturlar asosida o'qishga qodir bo'lgan, barcha uchun odatiy, ilmiy natijalarni ko'rsata oladigan bolalarni to'liq qabul qiladi. Buning natijasi o'laroq rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar aksariyat holatda ta'lim jarayonlaridan chetda qolib ketadilar. Buning asosiy sababi umumta'lim muassasalarida rivojlanishda nuqsoni bor bolalar bilan ishlashda pedagoglarning maxsus bilim va ko'nikma hamda malakalarga ega emasligi hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim tizimi esa zamonaviy maktablarda bu kabi muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan ta'lim shakli sifatida e'tirof etiladi.

Inklyuziv ta'lim bu barcha uchun, shu bilan birga alohida ehtiyojli, imkoniyati cheklangan bolalarni ham ta'limga jalb etishni nazarda tutadigan umumiy ta'limni rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

"Inklyuziv ta'lim – barcha uchun teng imkoniyatlar bera oladigan ta'lim. Unda ko'zi ojiz, eshitishida, tayanch-harakatida nuqsoni bor yoki sog'lom – hamma birgalikda o'qiy oladi"[5] – degan ta'rifni O'zbekiston Nogironlar jamiyati rais o'rinbosari Abdulla Abduxalilov keltiradi.

Xalqaro Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 1 milliarddan ziyod kishida ya'ni dunyo aholisining 15%da nogironlikning u yoki bu turi kuzatiladi. Ularning 80%i rivojlanayotgan davlatlarda yashaydi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston aholisining 2,14 % nogironligi bor shaxslar sifatida qayd etilgan. Nogironlik bo'yicha to'g'ri va ishonchli ma'lumotlar nogironligi bo'lgan shaxslarni hayotda nogironligi bo'lmagan shaxslar bilan teng holatda ishtirokini ta'minlash uchun muhimdir [6].

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda O'zbekiston aholisi orasida 845,3 ming kishi nogironligi bo'lgan shaxslar deb topilgan. O'zbekistonda 142,3 ming nafar 18 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar bor [7]. Ushbu statistik ma'lumotlar bu toifadagi bolalarning ta'limi ham nechog'lik ahamiyatli ekanligini anglatadi. Ta'lim tizimida nogironligi mavjud bolalar uchun maxsus maktab-internatlar faoliyat yuritadi, shu bilan birga rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'limning uydagi ta'lim shakli amaliyotga joriy qilingan. Biroq ushbu sa'y-harakatlar nogironligi mavjud bolalarni to'liq va sifatli ta'lim bilan qamrab olmaydi. Buning bir necha sabablari bor:

- Maxsus maktab-internatlarining mavjud ehtiyojlarga nisbatan kamligi (nogironligi bo'lgan bolalarning 26,8 %i ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarga qamrab olingan);

- Moddiy-texnika bazasining yetarli emasligi;
- O'qituvchi-pedagoglar yetishmasligi;
- Bino-inshootlarning infratuzilmalari talabga javob bermasligi;
- O'qituvchi-pedagoglarda maxsus bilim va ko'nikmalarning yetarli emasligi;
- Maxsus darsliklar hamda o'quv adabiyotlarining yetishmasligi va boshqalar sabablar.

Imkoniyati cheklangan shaxslarni ta'lim jarayonlari bilan qamrab olish tarixan shartli ravishda to'rt bosqichni bosib o'tgan. Bular:

- Eksklyuziya;
- Segregatsiya;
- Integratsiya;
- Inklyuziya.

Eksklyuziya (lot. istisno qilish) – nogironligi mavjud bo'lgan bolalarning ta'limga qamrabolinmaganligi holatini anglatadi. Bunda jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bor hamda nogironligi mavjud bolalarning ta'lim olishi imkoniyat yaratilmaganligini bildiradi.

Segregatsiya (lot. ajratish) – o‘ziga xos ta‘lim tizimi bo‘lib, bunda nogironligi bor bo‘lgan bolalar nogironlik turiga qarab alohida maxsus ta‘lim muassasalari (ko‘zi ojizlar uchun maxsus maktab-internati, tayanch-harakatlanishida nuqsoni bor bolalar uchun maxsus maktab-internat yoki kar-soqov bolalar uchun maxsus maktab-internatlari va boshq.)da o‘qitilish holati hisoblanadi.

Integratsiya (lot. tiklash, to‘ldirish) – ta‘lim muassasalarida nogironligi mavjud bo‘lgan bolalar uchun maxsus sinf yoki guruhlar tuzgan holda ta‘lim berish shakli sanaladi.

Inklyuziya (lot. *kiritish*) – nogironligi bor bolalarni o‘qitishning zamonaviy shakli bo‘lib, bunda imkoniyati cheklangan bolalar bilan sog‘lom bolalarning ta‘limi birgalikda tashkil etiladi.

Inklyuziv ta‘lim o‘qitishning universal shakli bo‘lib, nogironligi bor bolalar uchun ta‘limda yaratilgan sharoit va imkoniyatlar boshqa sog‘lom bolalar uchun ham qulay hisoblanadi. Ta‘limning ushbu shaklini amaliyotga joriy etish har doim ma‘lum bir qonun-qoidalar, tamoyillarga asoslanadi. Inklyuziv ta‘limni amalga tadbiiq etish uchun quyidagi tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

- Inklyuziv ta‘limning e‘tirof etilishi tamoyili;
- Inklyuziv ta‘limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyili;
- Bog‘lanishning mavjud bo‘lishi tamoyili;
- Markazlashtirilmagan bo‘lishi tamoyili;
- Inklyuziv ta‘limda kompleks yondashishi tamoyili;
- Inklyuziv ta‘limda moslashuvchanlik tamoyili;
- Malakaviylik tamoyili [3].

Har qanday jarayon amaliy harakatga aylanishi uchun uning huquqiy asoslari yaratilganligi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida ham nogironligi bor bolalarni sifatli ta‘lim jarayoni bilan qamrab olish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanib, uning normativ-huquqiy asoslari qabul qilingan.

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni 20-moddasiga ko‘ra “Inklyuziv ta‘lim alohida ta‘lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta‘lim oluvchilar uchun ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta‘minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv ta‘lim tashkil etiladi” [1] – deb belgilab qo‘yilgan.

Birgina qonun qabul qilish yoki ma‘lum bir huquqiy hujjatlarda inklyuziv ta‘lim jarayoni to‘g‘risida normalar kiritish orqali butun boshli jarayonni tartibga solish hamda amalga oshirish mumkin emas. “Ta‘lim barcha uchun” tamoyili asosida inklyuziv ta‘limni amaliyotga joriy etish va barcha uchun qulay bo‘lgan ta‘lim jarayonini amalga oshirish uzoq muddatli dasturlarni qabul qilishni taqozo etadi. Bu borada ayrim amaliy harakatlar boshlangan.

Xususan, 2020-yil 13-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda ushbu qarorga 1-ilova sifatida “2020–2025-yillarda xalq ta‘limi tizimida inklyuziv ta‘limni rivojlantirish” [2] Konsepsiyasi qabul qilingan. Qabul qilingan qarorga binoan alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta‘lim olish huquqini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil dekabr oyida “Xalqaro nogironlar kuni” munosabati bilan yo‘llagan murojaatida

inklyuziv jamiyatni barpo etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini e'tirof etib o'tgan edi. "Ishontirib aytamanki, sizlar o'z'laringizni yolg'iz his etmasligingiz uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz" [4], – deb ta'kidlagan edi davlat rahbari o'z nutqida.

Mavzu yuzasidan quyidagi fikr va mulohazalarni bildirish o'rinlidir:

- Nogironligi bor shaxslar uchun sifatli ta'lim berish tizimini samarali yo'lga qo'yish maqsadida mavjud normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- Uzoq muddatga mo'ljallangan inklyuziv ta'lim hamda inklyuziv jamiyat strategiyasini ishlab chiqish;
- Inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha milliy ta'lim dasturini ishlab chiqish;
- Bino va inshootlar (birinchi navbatda ta'lim muassasalari) infratuzilmasini nogironligi bor shaxslar erkin harakatlanishi uchun moslashtirish hamda ularga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqi hamda normativ-hujjatlarda aks ettirish;
- Milliy shaharsozlikda baryer va to'siqlarsiz shahar konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, barcha bolalar jismoniy, ijtimoiy, intellektual va boshqa xususiyatlariga qaramay, ta'lim tizimiga jalb etilishi va tengdoshlari bilan birga tarbiyalanishi lozim.

Inklyuziv ta'lim zamonaviy jamiyatda katta istiqbolga ega bo'lgan ilg'or ta'lim usuli sifatida nogironligi bo'lgan har bir bolaning o'z imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan sifatli ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarishi, hayotda o'z o'rnini topishi va o'z hayotini, imkoniyat va salohiyatini amalga oshirishi uchun zamin yaratishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 2020-yil 23-sentyabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020-y., 07/20/4860/1383-son.
3. Raxmanova D.U., Mirzayeva S.R. Inklyuziv ta'lim sharoitida fanlarni o'qitish jarayoniga tatbiq etilgan zamonaviy yondashuvlar samaradorligi // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2022. – № 1. <https://interscience.uz>
4. <https://president.uz/oz/lists/view/5748>
5. https://daryo.uz/k/2021/10/14/_trashed-37
6. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/nogironlik-statistikasiga-yondashuv-va-amaliy-vositalar-malumotlarni-toplash-tahlil-qilish-va-ulardan-foydalanish>
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/01/persons-with-disabilities/>

АКТУАЛЬНЫЕ ПРИЛОЖЕНИЯ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКИ В СРЕДНЕМ СПЕЦИАЛЬНОМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ

Сардор Эгамбердиев

Старший преподаватель кафедры
точных наук института ISFT

Аннотация. Сегодня развитие цифровых технологий получило массивный масштаб, и мы сталкиваемся с этим во всех аспектах нашей жизни. У более чем 4-х миллиардов людей земного шара имеется доступ к мировой паутине и, по оценкам, почти каждый житель нашей планеты имеет какое-либо мобильное устройство, причем половина из них – смартфоны. Данное развитие повлиял на то, как люди взаимодействуют с другими людьми, узнают новости и видят мир вокруг себя. Особенно это касается процесса обучения, которое сегодня из традиционного трансформировалось в цифровое.

Ключевые слова: электронная доска, интерактивная панель, интерактивный дисплей, приложения, программа, цифровизация, математическая грамотность.

Целью данной статьи является выявление наиболее актуальных и перспективных приложений и технологий в процессе обучения математики в среднее специальных образовательных учреждениях.

Одним из таких примеров актуальной цифровизации обучения являются электронные доски. Сегодня почти в каждом общеобразовательном и высшем учебном заведении нашей республики имеются как минимум несколько интерактивных панелей (интерактивные дисплеи/электронные доски). С помощью данного устройства преподаватель может гораздо быстрее и более наглядно взаимодействовать с учащимися, чем с помощью традиционной доски, а имея доступ к интернету открываются безграничные возможности для обучения. Далее речь пойдет об использовании одного из наиболее полезных устройств электронной доски и приложений для данного устройства.

Использование электронной доски особенно важно в процессе обучения математики. Так как, математика обычно излагается скучно и сухо. Данный девайс же позволяет учащимся самим строить графики функций меняя переменные, смотреть различные решения уравнений, строить трехмерные геометрические фигуры, а также сечения в них и т.д. То есть, в классе (группе) где имеется электронная доска учащиеся активно участвуют в учебном процессе. Это также делает учебный процесс более приятным. Учащиеся (студенты) с удовольствием будут приходить на занятия, решать задачи, получают игровые награды и будут играть в этой веселой системе поддержки обучения. Во время такой игры они будут развивать свою математическую грамотность.

Язык математики универсален, а значит мы можем использовать мировой опыт лучших математических приложений. Для улучшения контента уроков с помощью лучших программ для изучения математики, идеально сочетающихся с используемой электронной доской и персональными устройствами учащихся,

благодаря открытой Android платформе, можно сразу заметить изменения в поведении учащихся.

Одну из главных ролей при обучении с помощью электронной доски играют приложения. Так как сегодня с их помощью мы можем значительно облегчить и ускорить процесс обучения. Далее будут описаны наиболее эффективные приложения, используемые при обучении базовых математических знаний.

Photomath – это мегапопулярное среди школьников и студентов приложение для решения математических задач. Принцип работы приложения состоит в том, что когда наводим камеру на пример, уравнение, подкоренное выражение и после сканирования выбранной области, приложение даёт готовый ответ. В основном из-за чётко настроенного сканера, который позволяет при наведении камеры на пример, получать готовое решение в течение нескольких секунд. Степени, корни, уравнения, неравенства, алгоритм можно посчитать практически любой пример. Помимо готового решения, мы получаем его детали, что очень важно для студентов и учащихся. Если нужно вернуться к решению предыдущего задания, то легко сможем найти 10 последних решений в истории. А вот с написанным вручную примерами, могут возникать определённые трудности, которые можно решить внесением исправлений вручную.

